

# O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

## Andijon viloyat statistika boshqarmasi

**2017 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda bajarilgan**

### **QURILISH ISHLARI**

#### **KO'RSATKICHLAR:**

*Qurilish-montaj ishlari  
hajmi – 1761,8 mlrd.so'm*

*Yirik qurilish-pudrat  
tashkilotlari ulushi – 5,7 foiz*

*Kichik korxona va  
mikrofirmalar ulushi – 50,8  
foiz*


*Norasmiy sektorning ulushi  
– 43,5 foiz*

2017 yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha viloyatda 1761,8 mlrd.so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,9 foizni tashkil etdi hamda 2016 yilning yanvar-dekabr davriga nisbatan 11,6 foiz punktga kamaydi.

Xususan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 100,3 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 84,2 foizni tashkil etdi.


Ko'pgina tumanlarda mazkur davrda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Xo'jaobod tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 2,8 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 33,9 foizni, mos ravishda Oltinko'l tumanida – 2,0 mlrd.so'm yoki 44,0 foizni, Ulug'nor tumanida – 8,0 mlrd.so'm yoki 51,1 foizni, Andijon tumani – 9,4 mlrd.so'm yoki 63,7 foizni tashkil etdi.

### **Qurilish ishlari, mlrd.so'm**



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 50,8 foizini tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,0 foizga teng bo'ldi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari, namunaviy loyihamalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar.






#### **2017 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari**

Mulkchilik shakliga qarab (shahar va tumanlar)	Jami		shu jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan	
	mlrd.so 'm	o'sish darajasi, %da	mlrd.so 'm	o'sish darajasi, %da
1	2	3	4	5
Viloyat bo'yicha	1761,8	101,9	895,7	106,0
shaharlar:				
Andijon	630,3	102,9	419,1	109,9
Xonobod	22,2	116,2	14,0	105,9
tumanlar:				
Andijon	107,2	95,9	57,0	97,0
Asaka	70,7	100,1	22,5	96,9
Baliqchi	89,8	95,7	67,2	97,5
Bo'z	75,2	106,8	52,6	104,6
Buloqboshi	17,3	103,2	9,1	105,9
Jalaquduq	68,9	99,1	8,6	105,9
Izboskan	90,4	99,7	48,9	115,8
Qo'rg'ontep'a	82,8	116,4	15,9	105,9
Marxamat	58,8	109,8	22,8	105,9
Oltinko'l	168,7	110,2	36,4	112,4
Paxtabod	58	88,8	21,5	88,9
Xo'jaobod	61,3	97,8	6,8	95,6
Shaxrixon	131,4	95,8	78,5	96,9
Ulug'nor	28,8	93,7	14,8	160,6

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1688,2 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,8 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 foiz punktga ko'paydi.

Joriy davrda viloyat bo'yicha norasmiy sektorda o'sish sur'ati 100,2 foizni tashkil etdi va mazkur ko'rsatkichning nisbatan kamayishi Izboskan tumani (86,2%), Paxtaobod tumani (88,6%), Shaxrixon tumani (90,1%), Baliqchi tumanida (94,9%) kuzatildi.



**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika  
qo'mitasi**

**Andijon viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

*Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37*